



**Shoira Shams lirikasida lafziy- ma'naviy san'atlarning mushtarak
qo'llanilishi**

**Urganch davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi
Bobonazarova Gulzoda**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shoira Qalandarova ijodida lafziy-ma'naviy san'atlarning mushtarak qo'llanilish holatlariga e'tibor berilgan va ijodkor g'azallaridan namunalar keltirilib, ma'nolari izohlab berilgan.

Kalit so'zlar: tanosub, tashbeh, tarse, tazod, irsoli masal, nido, radd-ul matlaa, tashbeh, talmeh.

Tashbeh- Sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo'lib, "o'shatish" ma'nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasida haqiqiy(real) yoki majoziy mubosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir. Tashbeh san'ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o'quvchi ko'z o'ngida aniqroq, jozibaliroq gavdalantirishga xizmat qilib, asar timsollari ma'naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir g'oyasini o'quvchi ongiga to'laroq yetkazishga imkon beradi.

Masalan, Shoira Shamsning quyidagi baytida:

Boshimga yog'durursan g'am toshini,

Nechuk sevding bu ko'zlarning yoshini [“Javrikim jondin o'tar” 90-bet]

Ushbu baytda g'am toshi birikmasi natijasida tashbeh san'ati yuzaga keltirilgan. Baytni tahlil qiladigan bo'lsak, boshimga g'am toshini yog'dirarsan, shunday bo'lishiga qaramasdan nima uchun bu ko'zlarning yoshini sevding degan ma'no anglashiladi.

Tazod- so'zi “zid qo'yish “, “qarshilantirish” ma'nolarini ifodalaydi. Shu so'z bilan ataluvchi she'riy san'at esa baytda ma'no jihatidan o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llab, ta'sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi. Masalan Shoira Shamsning:

Ey ko'ngil, orom yo'qotding. Bu ne hol ?

Kecha –kunduz dilda yolg'iz bir savol. [“Javrikim jondin o'tar”

80-bet]



Ushbu baytda kecha va kunduz soʻzlari vositasida tazod sanʼati yuzaga kelgan. Ushbu baytni tahlil qiladigan boʻlsak, ey koʻngil sen orom yoʻqotding, endi bu ne hol, kecha-kunduz dilimda faqat yolgʻizgina bir savol degan maʼno kelib chiqadi.

Tarse-(arab. ziynatlash- bezash) sheʼrda birinchi misra sheʼrda birinchi misra soʻzlari bilan ikkinchi misra soʻzlarining bir-biriga ohangdosh, vazndosh, qofiyadosh boʻlib kelish usuli. Sheʼrshunos Ataulloh Husayniy “Badoyi us-sanoiy” asarida “tarse” istilohining lugʻaviy maʼnosi xususida toʻxtalib, “Bu sanʼatga “tarse” deb nom berurda ani shoda tarsindin olipturlar. Ul andogʻ dururkim, shodaning bir yonidagʻi javohir ikkinchi yonidagʻi javohir singlaridir”.

Quyida esa Shoira Shamsning :

Ey koʻngil, ne istading, solding qiyomat olama,

Bul ajab nagʻmangdin oʻtmishdir ofat olama [**“Javrikim jondin oʻtar” 76-bet**]

Ushbu baytda ea qiyomat va ofat soʻzlari natijasida tarse sanʼati yuzaga keltirilgan. Baytni tahlil qiladigan boʻlsak, ey koʻngil nimani istading bu qiyomat olamda, vo ajabki bu aytgan soʻzlaring endi oʻtmishdir degan maʼno anglashiladi.

Tanosub- sheʼr baytlarida maʼno jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi soʻzlarni qoʻllab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish sanʼati tanosub deyiladi. Masalan Shoira Shamsning:

Tutub bogʻ-u adirlarni uzun sochlar shamolikim,

Qoshin uysa koʻzida to bulutlar gohi paydo qish [**“Javrikim jondin oʻtar” 86-bet**]

Ushbu baytda qosh, koʻz soʻzlari vositasida tanosub sanʼati yuzaga keltirilgan Yaʼni bir uyaga mansub soʻzlar vositasida tanosub sanʼati kelgan. Ushbu baytni tahlil qiladigan boʻlsak, bogʻ- u adirlarni tutub, uzun sochlar shamolini, agar qoshini koʻzida uysa, to bulutlar gohi qish paydo boʻladi.

Kitobat- Sheʼriyatimizda keng qoʻllanilib kelingan ushbu sanʼat arab alifbosi harflari shaklidan lirik va epik timsollar chizishda foydalanishni nazarda tutadi. Maʼlumki arab, alifbosi toʻgʻri va egri, yoysimon va doirasimon shakllardagi harflardan tashkil topgan. Sharq shoirlari ana shu shakllarga qiyos usuli bilan yondashib, muhim ijtimoiy-siyosiy, maʼrifiy-axloqiy gʻoyalarni ifodalashda mahorat bilan foydalanilgan.

Masalan, Shoira Shamsning quyidagi baytida:

Tushub “ayn” uzra “shin” u “qof” hargiz,



Maning qatlimg'a qasd qildi qasosi. [**“Javrikim jondin o'tar”54-bet**]

Ushbu baytda ijodkor aynan kitobat san'atini qo'llagan. Ya'ni arab alifbosidagi harflar vositasida kitobat san'atini yuzaga keltirgan.

G'animlar ko'p aroda “hoyyi havvoz”,

Yo'lim to'smish bo'lib ishqim balosi. [**“Javrikim jondin o'tar” 54-bet**

]

Ushbu baytda ham araf alifbosidan foydalangan holda “hoyyi havvoz” sozi natijasida kitobat san'ati yuzaga keltirilgan.

Talmeh- (“nazar solmoq”) she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san'atidir.

Shoirlarning muhabbat mavzusidagi asarlari ko'pincha Sharqda keng tarqalgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Vomiq va Azro”, “Tohir va Zuhra” kabi qissalar dostonlarning qahramonlari nomiga ishora qilishidir. Biz esa Shoira Qalandarova ijodida aynan talmeh san'atining qo'llanilish holatiga e'tibor qaratdik:

Ko'ngulga o't tushubon angladim Layli-yu Majnunkim,

Badarman hajr sahrog'a, elimga sig'madim, naylay

Ushbu baytda yuqorida aytib o'tganimizdek “Layli va Majnun” dostonidagi bosh qahramon Layli va Majnun ismlari vositasida talmeh san'ati yuzaga keltirilgan.

Baytni bir qadar tahlilga tortib ko'rsak: ko'ngulga ishq o'ti tushgandan keyingina Layli kim-u, Majnun kim ekanligini angladim va negadir ayriliq sahrosida elimga ham sig'madim degan ma'no anglashiladi.

“Iyhom”- arab tilida “shubhaga solish” degan ma'noni ifodalaydi. Mumtoz adabiyotda esa iyhom haqiqiy va majoziy ma'nolariga ega, yohud shaklan bir, ma'no jihatidan har xil bo'lgan (jinsdosh) so'z yoki so'z birikmasini she'riyatda qo'llagan holda bir baytda 2 xil ma'noni ifodalash san'atidir.

Masalan, Shoira Shamsning:

Hijl ichinda yer yorilmas, agarki uchrasa,

Loladek ikki yuzim o't olar kulchasida. [**“Javrikim jondin o'tar”85-bet**]

Ushbu baytda o't so'zi natijasida iyhom san'ati yuzaga keltirilgan. Ya'ni o't so'zi ham olov, ham maysa o't ma'nolarini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu yerda aynan qanday ma'noda ishlatilayotganligini baytni tahlil qilish jarayonida anglashiladi.



Bu yerda o‘t so‘zi olov ma‘nosida ishlatilgan. Lekin tahlil jarayonida yuzingni o‘t oladi, ya‘ni olovli bo‘ladi degani majoziy ma‘noda ishlatilgan, shunchaki yuzi xuddiki olovdek qizarib ketishiga ishora bor xolos.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, badiiy san‘atlarning o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida tutgan o‘rni beqiyosdir. Chunki anan badiiy san‘atlar natijasida g‘azallardagi so‘zlarga ekpressiv- bo‘yoqdorlik kuchi samarali ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda. Bu yerda esa lafziy va ma‘naviy san‘atlarning mushtarak qo‘llanilishi o‘zaro baytlar vositasida isbotlab o‘tildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoir Shams “Javrikim jondin o‘tar”, “Quvonchbek-Mashura” MChJ Urganch-2018
2. T. Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari” Toshkent-2002
3. A. Hojiahmedov “Mumtoz badiiyat malohati”, “Sharq”-1999-yil